



INKLYUZIV TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHNING XALQARO VA
MILLIY ME'YORIY ASOSLARI

N. Abdullayeva

*Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar Universiteti
magistranti.*

Annotatsiya. Mazkur maqolada nogironligi bo'lgan bolalar va alohida ehtiyojli o'quvchilarning umumta'lim muassasalarida boshqa tengdoshlari bilan birgalikda ta'lim olishi bo'yicha takliflar muloxazalar ilmiy asosda yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, integratsiya, diskriminatsiya, ijtimoiy integratsiya, xalqaro hujjatlar, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiya, Salamanca deklaratsiyasi.

Аннотация. Данная статья представляет собой научное обоснование предложений и соображений, касающихся включения детей с ограниченными возможностями и учащихся с особыми потребностями в общеобразовательные учреждения вместе со своими сверстниками.

Ключевые слова: инклюзивное образование, интеграция, дискриминация, социальная интеграция, международные документы, Всеобщая декларация прав человека, Саламанкская декларация.

Abstract. This article provides a scientific basis for proposals and considerations regarding the inclusion of children with disabilities and students with special needs in general education institutions with their peers.

Key words: inclusive education, integration, discrimination, social integration, international documents, Universal Declaration of Human Rights, Salamanca Declaration.



Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri — barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlarni yaratishdan iborat. Shu nuqtai nazardan, inklyuziv ta'lim tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Inklyuziv ta'lim — bu nogironligi bo'lgan bolalar va alohida ehtiyojli o'quvchilarning umumta'lim muassasalarida boshqa tengdoshlari bilan birgalikda ta'lim olishini ta'minlaydigan tizimdir.

Inklyuziv ta'lim har xil ehtiyojli bolalarning ta'lim olishiga qaratilgan metodologiyani rivojlantirishga xarakat qiladi. Inklyuziv ta'lim turli ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan ixcham turdagi dars berishga yondashadigan ta'limni ishlab chiqishni amalga oshiradi. Agarda inklyuziv ta'limni tadbiq etishda dars berish, o'qitish bir muncha samarali va unumli bo'lsa unda nafaqat imkoniyati cheklangan bolalar balki barcha bolalar yutadi. Inklyuziv ta'lim maktablari bolalarning bilim olish uchun shaxsiy huquqlarini himoyalaydi. Bunday yondashuv diskriminatsiyani bartaraf etadi, kamaytiradi chunki bolalar bir-birlari bilan muloqot qilish jarayonida o'zlarining o'qitilish jarayonida turli ehtiyojlarga ega individum ekanliklarini anglaydilar. Sharqning mashhur allomalari Ibn Sino, Imom Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniylarning tarbiyaning maqsadlari har bir bola shaxsining rivojlanishiga ta'limning ta'siri to'g'risidagi qarashlari inklyuziv talim rivojlanishining metodologik bazasi hisoblanadi. Juda uzoq vaqt davomida maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim muassasalariga nisbatan maxsus segregatsion ta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya berish samarali deb hisoblanib kelindi. Imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim - tarbiyasi masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalar sirasiga aylanib bormoqda. Maxsus ta'lim, imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim tizimi sifatida rivojlangan. Ushbu ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarning ehtiyojlarini umumta'lim muassasalarida qondirib bo'lmaydi degan taxminlar asosida qurilgan. Maxsus ta'lim butun dunyoda maktab yoki internat shaklida, shuningdek umumta'lim maktablarining katta bo'lmagan qismlari sifatida

faoliyat yuritadi. “Ta’lim tizimi shunday bo’lishi keraki deb yozadi L.S.Vigotskiyning fikricha nuqsonli bolaning tarbiyalashning vazifasi boladagi nuqsonlarni kompensatsiya qilish va uning xayotga integratsiyasini ta’minlash deb xisoblaydi va buning uchun shunday ta’lim tizimini yaratish kerakki maxsus yordamga muxtoj bola o’qish jarayonida har tomonlama rivojlansin. Ya’niy L.S.Vigotskiy umumiy va maxsus ta’limni uyhunlashtiradigan ta’lim tizimini tashkil etish maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta’lim tizimida o’qitishni etirof etgan

Ushbu yo’nalishda xalqaro va milliy me’yoriy-huquqiy asoslar muhim o’rin tutadi. Inklyuziv ta’lim barcha bolalarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda sifatli ta’lim olish huquqini ta’minlashga qaratilgan. Bu tizim quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- *tenglik va diskriminatsiyaga yo’l qo’ymaslik*
- *har bir bolaning qadr-qimmatini hurmat qilish*
- *moslashuvchan o’quv muhiti yaratish*
- *ijtimoiy integratsiyani qo’llab-quvvatlash*

Inklyuziv ta’limni rivojlantirishda bir qator xalqaro hujjatlar ham muhim rol o’ynaydi: **1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-yil)** Mazkur hujjatda har bir insonning ta’lim olish huquqi kafolatlangan bo’lib, u inklyuziv ta’limning asosiy poydevorini tashkil etadi. **2. Bola huquqlari to’g’risidagi konvensiya (1989-yil)** Ushbu konvensiya barcha bolalarning, jumladan nogironligi bo’lgan bolalarning ta’lim olish huquqini ta’minlash zarurligini belgilaydi. **3. Nogironlar huquqlari to’g’risidagi konvensiya (2006-yil)** Mazkur hujjatda inklyuziv ta’lim alohida modda sifatida kiritilgan bo’lib, davlatlardan barcha darajadagi ta’lim tizimida inklyuziv yondashuvni joriy etish talab etiladi. **4. Salamanca deklaratsiyasi (1994-yil)** Bu hujjat inklyuziv

ta'limni rivojlantirish bo'yicha asosiy xalqaro strategik yo'nalishlarni belgilab bergan muhim hujjatlardan biridir.

O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. **1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi:** Konstitutsiyada barcha fuqarolarning ta'lim olish huquqi kafolatlangan. **2. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (2020-yil):**Mazkur qonunda inklyuziv ta'lim tushunchasi mustahkamlanib, alohida ehtiyojli bolalar uchun sharoit yaratish belgilangan.**3. "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonun:** Bu qonun nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatda to'laqonli ishtirok etishini, shu jumladan ta'lim olish huquqini ta'minlaydi. **4.Prezident qarorlari va farmonlari:**So'nggi yillarda inklyuziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan qator qarorlar qabul qilindi. Jumladan: maxsus maktab-internatlarni optimallashtirish: umumta'lim maktablarida inklyuziv sinflarni tashkil etish: pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash.

Inklyuziv ta'lim — bu faqat ta'lim tizimidagi yangilik emas, balki inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan muhim ijtimoiy jarayondir. Xalqaro va milliy me'yoriy asoslar ushbu yo'nalishda mustahkam huquqiy poydevor yaratadi. O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish borasida sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda va kelajakda bu tizim yanada takomillashishi kutilmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ |

REFERENCES

1. R. Sh. Shomaxmudova. "Maxsus va inklyuziv ta'lim" uslubiy qo'llanma. T.:2011 yil.
2. L.R.Muminova. Inklyuziv ta'lim. T.: - 2014 yil.



3. Ture Yonsson. . Inklyuziv ta'lim. T.: -2003.
4. R.Sh.Shomaxmudova. “Maxsus va inklyuziv ta'lim” uslubiy qo‘llanma. T.: -2011 yil.
5. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son Qarori.

